

IQTISODIYOT FANLARI / ECONOMIC SCIENCES

UO‘K 338.43

INNOVATSIYA - QISHLOQ XO‘JALIGI SAMARADORLIGINI VA DAROMADLARINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI

Burkhanov Alisher Hadjimurodovich - iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,
e-mail: alisher892jentra@gmail.com

Guliston davlat universiteti, Guliston sh., O‘zbekiston

***Annotatsiya.** Maqolada innovatsiya qishloq xo‘jaligi samaradorligi va daromadlarini oshirishning omili ekanligi nazariy va amaliy yondoshuvlar asosida bayon qilingan. Maqolaning maqsadi - qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari va potentsial imkoniyatlarini baholash. Mavjud imkoniyatlarni tizimlashtirish, davlatning bu boradagi tashabbuslarini oshirish masalalari bayon etilgan.*

Qishloq xo‘jaligini innovatsion mahsulotlar hajmi va ushbu soha bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar dinamikasi tahlil qilingan. Qishloq xo‘jaligida innovatsiya yo‘nalishlar bo‘yicha xarajatlari tasnifi keltirilgan. Qishloq xo‘jaligida innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi dinamikasi tahlil qilingan.

Maqolada tahlillar natijalarida, qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirish holatini baholash natijalari sohani qo‘llab-quvvatlash zaruriyati ochib berilgan.

Shu o‘rinda, mavjud muammolar bayon qilingan. Xususan, innovatsion mahsulotlar uchun to‘lov qobiliyatiga bo‘lgan talabning past darajasi, tashqi bozorlarda ichki ishlanmalarning zaif raqobatbardoshligi, xorijiy ilmiy-texnikaviy yechimlar va texnologiyalarni sotib olish uchun yetakchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini yo‘naltirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaridagi innovatsiyalar rivojlanishini rag‘batlantirishning past sharoitida ilmiy va innovatsion faoliyatning zaif mexanizmi kabitlar keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, maqolada qishloq xo‘jaligini samaradorligini oshirishni manbasi sifatida o‘simlikchilikda hosildorlikni, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish innovatsion yo‘llari ochib berilgan.

***Kalit so‘zlar:** innovatsiya, samaradorlik, potentsial imkoniyatlarni baholash, qishloq xo‘jaligi, mahsulot innovatsiyasi.*

UDC 338.43

INNOVATION IS THE MAIN FACTOR OF INCREASING AGRICULTURAL EFFICIENCY AND INCOME

Burkhanov Alisher Hadjimurodovich - Candidate of Economic Sciences, docent,
e-mail: alisher892jentra@gmail.com

Gulistan State University, Gulistan city, Uzbekistan

***Abstract.** The article states that innovative agriculture is a factor of increasing efficiency and income based on theoretical and practical approaches. The purpose of the article is to assess the theoretical foundations and potential opportunities for the development of innovative activities in agriculture. Issues of systematization of existing opportunities and increasing the state's initiatives in this regard are described.*

The volume of agricultural innovation products and the dynamics of enterprises and organizations engaged in this field were analyzed. The classification of costs of innovation in agriculture is presented. The dynamics of the volume of innovative products, works, and services in agriculture were analyzed.

In the article, the results of the analysis, the results of the assessment of the state of development of innovative activity in agriculture reveal the need to support the sector.

Here, the existing problems are described. In particular, the low level of demand for solvency for innovative products, the weak competitiveness of domestic developments in foreign markets, the orientation of leading agricultural enterprises for the purchase of foreign scientific and technical solutions and technologies, innovations in agricultural producers the weak mechanism of scientific and innovative activity in the low conditions of stimulating the development was mentioned.

Also, in the article, as a source of increasing the efficiency of agriculture, the ways of innovation to increase productivity in crop production and productivity in animal husbandry are revealed.

Key words: *innovation, efficiency, assessment of potential opportunities, agriculture, product innovation.*

УДК 338.43

ИННОВАЦИЯ – ГЛАВНЫЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ДОХОДОВ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

Бурханов Алишер Хаджимуродович - кандидат экономических наук, доцент,
e-mail: alisher892jentra@gmail.com

Гулистанский государственный университет, г. Гулистан, Узбекистан

Аннотация. *В статье утверждается, что инновационное сельское хозяйство является фактором повышения эффективности и доходов на основе теоретических и практических подходов. Цель статьи - оценить теоретические основы и потенциальные возможности развития инновационной деятельности в сельском хозяйстве. Описаны вопросы систематизации имеющихся возможностей и повышения инициативы государства в этом плане.*

Проанализированы объем сельскохозяйственной инновационной продукции и динамика предприятий и организаций, занятых в этой сфере. Представлена классификация затрат на инновации в сельском хозяйстве. Проанализирована динамика объема инновационной продукции, работ и услуг в сельском хозяйстве.

В статье раскрываются результаты анализа, оценки состояния развития инновационной деятельности в сельском хозяйстве, необходимость поддержки отрасли.

Здесь описаны существующие проблемы. В частности, низкий уровень платежеспособности спроса на инновационную продукцию, слабая конкурентоспособность отечественных разработок на внешних рынках, ориентация ведущих сельскохозяйственных предприятий на закупку зарубежных научно-технических решений и технологий, инновации сельхозпроизводителей, слабый механизм отмечена научная и инновационная деятельность в низких условиях стимулирования развития.

Также в статье в качестве источника повышения эффективности сельского хозяйства раскрываются пути внедрения инноваций для повышения урожайности в растениеводстве и продуктивности в животноводстве.

Ключевые слова: *инновации, эффективность, оценка потенциальных возможностей, сельское хозяйство, продуктовые инновации.*

Kirish

Jahon banki hisobotida aytilishicha, qishloq xo'jaligi innovatsiyalari va texnologiyalari rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlikni qisqartirishning kalitidir [1].

Unda qayd etilishicha, dunyodagi o'ta kambag'allarning qariyb 80 foizi qishloqlarda istiqomat qiladi, ularning aksariyati tirikchilik uchun dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Shunday qilib, qashshoqlikni qisqartirish bo'yicha sa'y-harakatlar qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga,

intensiv o‘shishga e‘tiborni talab qiladi, bu esa qashshoqlikni kamaytirishga har qanday tarmoqqa ishlab chiqarishga qaraganda taxminan ikki baravar ko‘p eng katta ta‘sirini ko‘rsatadi.

“Qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish ko‘proq va yaxshi ish o‘rinlarini yaratishga olib keladi, shu bilan birga ko‘proq odamlarga qishloq xo‘jaligidan tashqari shaharlarga ko‘chib o‘tishga imkon beradi. Buning uchun mahalliy qishloq xo‘jaligi innovatsion tizimlarini keng qamrovli isloh qilish, samaraliroq davlat xarajatlari va xususiy sektorning roli ortib borayotgan qishloq xo‘jaligining inklyuziv qiymat zanjirlarini rivojlantirish kerak”, dedi Jahon banki guruhining adolatli o‘shish, moliya va institutlar bo‘yicha vitse-prezidenti Ceyla Pazarbasiglu [1].

O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan qishloq xo‘jaligida ham innovatsion va texnologik rivojlanishni ta‘minlash va rag‘batlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. Respublikamiz 81 ta indikator bo‘yicha baholanadigan Global innovatsion indeksi reytingida 2015-yilga nisbatan 36 ta pog‘onaga ko‘tarildi, innovatsiya va ilm-fan sohalariga Davlat budjetidan ajratiladigan yillik mablag‘lar hajmi 2018-yilga nisbatan 3 baravarga oshirildi va 1,5 trillion so‘mga yetkazildi, yosh olimlar 2018-yilda 6,5 ming nafar bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni 10,8 ming nafarni tashkil etdi, ya‘ni bir yarim baravarga o‘ydi [2, 3].

Dunyo mamlakatlari tajribasiga ko‘ra bilimlarga va navatorlik tashabbuslarga asoslangan yangi mahsulot, xizmat va texnologik jarayonlarni yaratish, joriy etish va keng ko‘lamda ishlab chiqarishga joriy etish, investitsiyalar hajmining muhim omiliga aylandi, mahsulot sifatini yaxshilash, uning raqobatbardoshligini, mehnat unumdorligini oshirish, tejamkorlik, ishlab intensiv o‘shish va samaradorligini oshirib borishni talab etadi. Har qanday mamlakat raqobatbardoshligini o‘shirib borishining muhim omili uning bosqichma-bosqich innovatsion taraqqiyot yo‘liga o‘tishi bilan izohlanadi. Iqtisodchilarning mulohazalariga ko‘ra, XXI asrda turli mamlakatlarning strategik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan muammolarini hal qilishda muhim rol – bilimlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish deb baholaydilar.

So‘nggi 15 yil ichida AQSh va G‘arbiy Evropada innovatsiyalar sohasida ishlayotganlar soni ikki martaga, Janubiy-Sharqiy Osiyoda esa 4 baravarga ko‘paygan. Evropa Ittifoqida innovatsion faol sanoat korxonalarining ulushi 56 foizdan ko‘proqni tashkil etmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning 75 foizi aynan innovatsiyalar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda.

Agar xorijiy tendensiyalarga e‘tibor bersak, har yili 1 mln. aholiga to‘g‘ri keladigan yaratilgan innovatsiyalar soni (xorijiy patent idoralarida tan olingan): AQSh da – 261,7; Yaponiyada – 213,0; Germaniyada – 206,3; Fransiyada – 171,9; Rossiyada – 1,3 ni tashkil etmoqda [4].

Innovatsiyaning birinchi ta‘riflaridan biri Shumpeter (1934) “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida berilgan. U o‘z ishida iqtisodiy rivojlanish dinamik jarayon orqali innovatsiyalar tomonidan boshqariladi, bunda yangi texnologiyalar eskisini almashtiradi, bu jarayonni u “ijodiy halokat” deb atagan [5].

Ushachev, I.S. Sandu V.G. Savenkoning ta‘kidlashicha, innovatsion faoliyatning samaradorligi butun mamlakatda, har bir hududda, kichik tarmoqlar, korxonalarda innovatsion salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlariga bog‘liq [6].

Mamlakatning don mahsulotlari tarmog‘i rivojlantirishning strategik yo‘nalishi sifatida innovatsion faoliyat metodologiyasi masalalari A.I. Altuxov va V.I. Nechaev, N.P. Kravchenko, metodologiyani ishlab chiqish bilan birga qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlari va duragaylarini o‘zlashtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash ishlab chiqarish va moliyaviy risklarni hisobga olgan holda tarmoq innovatsiyalarini rivojlantirishga investitsiyalar samaradorligini baholash zarurligini asoslab berdi [7]. V.M. Novikov fikriga ko‘ra, innovatsion faoliyat investitsiya faoliyati bilan chambarchas bog‘liq, chunki yangi texnologiya va uskunalarni joriy etish moliyaviy resurslarni talab qiladi [8].

Ayrim mahalliy tadqiqotchilar, xususan, Sh.Mustafoqulov hududlarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion salohiyatini baholash usullarini, X.Muxitdinov institutsional innovatsion salohiyatni shakllantirish va rivojlantirishda institutsional yondashuvini rivojlantirishni ko‘rib chiqdilar [9, 10].

Uslub va materiallar

Tadqiqot nazarda tutadigan muammolarni hal qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish umumiy ilmiy metodologiyaga asoslanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samaradorlikni oshirishning nazariy va uslubiy asosini mamlakatimiz va xorijiy olimlar va mutaxassislarining tadqiqot ishlari, o'rganilayotgan jarayonlarni tahlil qilishga kompleks tizimli yondashuv, iqtisodiyotning eng muhim masalalari bo'yicha O'zbekiston qishloq xo'jaligiga oid qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining dasturiy va prognozli ishlanmalari xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida turli usullar: kuzatish, tizimli tahlil, iqtisodiy va statistik tahlil, ekspert baholari, monografik va boshqalardan foydalanilgan.

Natijalar

O'zbekistonlik agrar iqtisodiyot tadqiqotchilarining aksariyati mehnat unumdorligining o'sishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi, aniqlaydi va albatta ularning mahsulot tannarxiga ta'sirini ko'rib chiqadi hamda tahlil qiladi. Yevropada bu borada fermerlar yondashuvining e'tiborli jihati shundaki, ular har doim tanlovni amalga oshiradilar - qimmat traktor yoki oddiyroq, yoki hatto qo'lda ishlash. Shunday qilib, ular "birlik xarajatlarini kamaytirishga" harakat qiladilar.

Albatta, qishloq xo'jaligi sohasida innovatsiyalarga ayniqsa xususiy investisiyalarni jalb qilish boshqa yuqori texnologik sanoat korxonalarini, mehmonxona va restoran biznesi kabilarga nisbatan qiyinroq kechadi. Bunday holatda yuqori samaradorlikka erishish uchun odatda davlat tashabbusni o'z qo'liga oladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligining innovatsion faoliyatini shakllantirish uchun innovatsion jarayonlarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda, shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog'lagan holda olib borishning printsiplial jihatdan yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini tubdan o'zgartirish zarurati tug'ildi.

Hozirgi vaqtda innovatsion faoliyatga shart-sharoitlar yaratish uchun potensial imkoniyatlarni shakllantirish va uni baholash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda mavjud ma'lumotlarga e'tibor berilmoqda, ammo mavjud ma'lumotlar aksariyat holda bir xil talqinga ega bo'lmay turlicha, ba'zan esa qarama-qarshidir. Fikrimizcha, innovatsion faoliyatni rivojlantirish potensialini yaratilgan shart-sharoitdan kelib chiqib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish asnosida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish, tarqatish va ulardan foydalanish uchun resurslar, texnologik, tijorat va boshqaruv vakolatlari yig'indisini tushunilishi kerak. Innovatsion rivojlanish potensialini baholashda - mintaqada makroiqtisodiy, infratuzilmaviy, kadrlar va natijaviy ko'rsatkichlar guruhlarini tahlil qilish orqali amalga oshirilishi taklif etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hududning mavjud innovatsion infratuzilmasi potensial imkoniyatlarning ichki tarkibiy qismiga tegishli ta'sir ko'rsatmaydi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarga talab past darajada qolmoqda – innovatsion imkoniyatlarning mavjudligi va ularni amalda joriy etish o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Mintaqadagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari kamdan-kam hollarda kuchli innovatsion salohiyatga ega, ammo undan unumli foydalana oladiganlar ham kamroq. Muammo innovatsion salohiyat birinchi navbatda davlat tomonidan ushbu sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmini oshirish, huquqiy asoslarini mustahkamlashdan iboratdir. Shuningdek, masalaning ikkinchi tomoni mavjud imkoniyatlardan foydalanish samaradorligini baholash zarur. Buning uchun soha faoliyati natijalari yuzasidan kompleks tadqiqotlar o'tkazish, konseptual yondashuvlarni talab qiladi.

Shunga qaramay, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida innovatsion faol tashkilotlar soni bo'yicha, qishloq xo'jaligidagi texnologik innovatsiyalar uchun xarajatlar darajasi bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etilmoqda (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini innovatsion mahsulotlar hajmi va ushbu soha bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar dinamikasi [11]


Faoliyat turlari	Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi, mln. so‘m		Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni, birlik		Texnologik, marketing, tashkiliy innovatsiyalarni joriy qilgan tashkilotlar soni, birlik		ulardan texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan tashkilotlar soni, birlik	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami	31142795,9	27378613,9	6771	3974	1217	1151	1148	1098
<i>shu jumladan:</i>								
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida	247793,6	315147,1	168	93	30	29	30	29
<i>ulardan:</i>								
chorvachilikda	188402,4	28272,9	75	24	9	6	9	6
mavsumiy ekinlarni yetishtirishda	29413,9	176268,2	32	34	9	11	9	11
boshqa faoliyat turlarida	29977,3	110606	61	35	12	12	12	12

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

1-jadval ma‘lumotlarida ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmi qishloq xo‘jaligi sohasida 2020-yilda 247793,6 mln. so‘mni, 2021-yilda 315147,1 mln. so‘mni, yoki 67,353 mln. so‘mga ko‘paygan. Biroq, innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni 2021-yilda o‘tgan yilga nisbatan 75 taga kamayib ketganligi bu borada olib borilayotgan amaliy ishlarimizni tanqidiy ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Mamlakatimizda jami innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi qishloq xo‘jaligida 2020-yilda 7,9 foiz, 2021-yilda 11,5 foizni tashkil qilgan.

Qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatga qilingan xarajatlar tasnifi shuni ko‘rsatadiki, qilingan xarajatlarning 99,95 %ini texnologik innovatsiyalar uchun xarajatlar tashkil etadi, tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar bor-yo‘g‘i 0,02 %ni tashkil etishini hisobga olsak, bu ko‘rsatkich deyarli yo‘q degan xulosaga kelish mumkin. Yoki mashina va uskunalar sotib olish xarajatlar ham nolga teng. Chorvachilikka qilingan xarajatlar jami qilingan xarajatlarning atigi 4,7 % ini tashkil qilganligi ham, innovatsion faoliyatga xarajatlarning mavsumiy qishloq xo‘jaligi ekinlari bilan cheklanib qolayotganligidan dalolat beradi (1-rasm).


Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirish holatini baholash natijalari sohani qo‘llab-quvvatlash zaruriyatini talab qiladi. Ushbu sohada innovatsion faoliyatni rivojlantirish unga motivasiya, stimull berish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, bu borada fermer va dehqon xo‘jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini o‘qitish, malakasini oshirish, subsidiya ko‘rinishidagi imtiyozli kredit, soliq imtiyozlari kabi vositalarni ishga solish orqali vaziyatni yaxshilash imkoni mavjud.



1-rasm. 2021 yilda qishloq xoʻjaligida yoʻnalishlar boʻyicha innovatsiya xarajatlari tasnifi (mln.soʻmda) [11].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklarida 2021-yilda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi, 315147,1 mln.soʻm, shundan mavsumiy ekinlarni yetishtirishda mos ravishda 55,9 %ni, bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 305407,5 mln. soʻmni tashkil qilib, mos ravishda 55,6 %ga toʻgʻri kelgan. Biroq, chorvachilik sohasiga innovatsion faoliyat uchun eʼtiborning qanchalik yuqoriligiga qaramasdan sarflanayotgan xarajatlar kam, dasturlar doirasida innovatsion texnologiyalar, xorijdan valytaga keltirilgan mahsuldor chorvalari mavjud, avtomatlashgan, mexanizatsiyalashgan fermalar ham aksariyat hollarda qilingan xarajatlarni oqlamayapti. Natijada innovatsion mahsulot hajmi kam, masalan qishloq xoʻjaligidagi jami innovatsion mahsulotlar va xizmatlar qiymati 9,0 %ni va 7,7%ni tashkil etishida ham koʻrishimiz mumkin [2-rasm].



2-rasm. 2021-yilda Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligida innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (mln. soʻmda) [11].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

Munozara

Bugungi kunda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlanishi bir qator vazifalarni hal etishni talab qiladi:

- agrosanoat majmuasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning - rag‘batlantirishning kompleks mexanizmining ishlab chiqish;
- qishloq xo‘jaligida yuqori texnologik modernizatsiyasiga o‘tish va undagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- umuman agrar tadbirkorlikning o‘sishi intensiv xarakterga ega bo‘lishini ta‘minlash, yalpi mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omillarining o‘sishi bilan ta‘minlanadi;
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadli xarakterga ega bo‘lib, asosan moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilishga qaratilgan;
- innovatsion mahsulotlar uchun to‘lov qobiliyatiga bo‘lgan talabning past darajasi;
- tashqi bozorlarda ichki ishlanmalarning zaif raqobatbardoshligi;
- xorijiy ilmiy-texnikaviy yechimlar va texnologiyalarni sotib olish uchun yetakchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini yo‘naltirish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaridagi innovatsiyalar rivojlanishini rag‘batlantirishning past sharoitida ilmiy va innovatsion faoliyatning zaif mexanizmi;
- idoraviy tarqoqlik va past mahalliy qishloq xo‘jaligi fanining ilmiy-texnik salohiyati;
- ilmiy tadqiqotlarni budjetdan moliyalashtirish hajmining yetarli emasligi va ilmiy-tadqiqot ishlariga xususiy investitsiyalar hajmining cheklanganligi;
- innovatsion progressiv texnologiyalarni tarqatishda fermerlarning ko‘pchiligining og‘ir moliyaviy ahvoli va yuqori kapital zichligi tufayli asosan yirik tovar ishlab chiqaruvchilar orasida kechayotganligini kuzatish mumkin.

Qishloq aholisi, fermer va dehqon xo‘jaliklari rahbar va mutaxassislari yangi texnologiyalar haqida kam ma‘lumotga egaligi, sug‘urta va kapital bozorlarining talab darajasida emasligi, bozor oldi-sotdi xarajatlarining yuqoriligi, transport infratuzilmasining yetishmasligi fermerlar o‘rtasida yangi texnologiyalarning o‘zlashtirilishi va tarqalishiga to‘sqinlik qilmoqda. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarini ko‘paytirish bilan birga, yuqoridagi qayd etilgan muammolarni bartaraf etib borish uchun doimiy harakatlar zarur bo‘ladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar tasodifiy jarayon emas. Innovatsiyaga moyillik bir qancha o‘zgaruvchilarga bog‘liq bo‘ladi. Xususan, fermer va dehqon xo‘jaligi daromadlari hajmi va aylanmasi ijobiy o‘zgarishi innovatsiyaga moyillikka sezilarli darajada bog‘liq. Kichik ishlab chiqaruvchilar uchun innovatsiyalarga kam bo‘lsa-da, raqobatbardoshlikni ta‘minlash uchun innovatsion xatti-harakatlar talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, Klasterlar sifatida tarmoqda ishtirok etish raqobat imkoniyatlarini oshirishning muvaffaqiyatli usuli sifatida qaralishi mumkin. Mintaqaviy klasterlar ma‘lum bir geografik hududda turli mahalliy manfaatdor tomonlarni birlashtiradi, ular bir vaqtning o‘zida hamkorlik qiladi va innovatsiyalarni tarqatish va mahalliy rivojlanish sifatida turli iqtisodiy afzalliklarga ega bo‘lish uchun yangi sinergiyalarni yaratadi [13].

Qishloq xo‘jaligini samarali rivojlantirishda agrosanoat majmuasi innovatsion faoliyatni boshqarishni murakkablashtiradi va uni qator omillar ta‘sirida cheklaydi. Ular orasida iqtisodiy vaziyatning noaniqligi, keskin raqobat, inflyatsion jarayonlar, talabning pasayishi, narxlarning nomutanosibligi, korxonalarining asosiy fondlariga yetarli miqdorda investitsiyalar kiritilmasligi, import o‘rnini bosish zarurati kabilar kiradi [14].

Subsidiyani oldindan rag‘batlantiruvchi motivatsiya vazifasini bajaruvchi stixiyali harakat sifatida baholash bozor tamoyillariga mos tushadi desak, to‘g‘ri bo‘ladi, chunki uzoq yillar davomida dotatsiya qarzdand kechish amaliyoti, aksincha, hosildorlikni oshirishga, rentabellikni ta‘minlashga xizmat qilmadi, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi, strategiyani to‘g‘ri tanlash imkonini bermadi [15]. Innovatsion faoliyatni subsidiyalash tizimini takomillashtirishda xorijning ilg‘or tajribalaridan foydalanish samarali bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Bizningcha, birinchi navbatda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qishloq xo‘jaligi sohasi munosabatlari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga narx siyosatiga bozor tamoyillarini joriy etish

shunga ko'ra o'z aksini topishi kerak. Bunda, davlat tomonidan tartibga solish direktiv xarakterga ega emas balki, bozor munosabatlari sharoitida imtiyozli kreditlash, narx siyosati, soliqlar, subsidiyalar, eksport va importni rivojlantirish va boshqalar orqali amalga oshiriladi [16].

Xulosa

Qishloq xo'jaligi sohasida innovatsion va investitsiya faoliyatining hududiy jiddiy qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Turli hududlarda viloyat, shahar va tumanlarda innovatsion faollikning notekis darajasini tavsiflovchi omillar mavjud.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga muvofiq rivojlantirish ishlab chiqarishni tizimli o'zgartirish, global raqobatbardoshligini ta'minlash, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida hamkorlik va integratsiya aloqalarini yangi bosqichga ko'tarish, maqsadli parametrlarni optimallashtirish va uning asosiy tarmoqlarini rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligini samaradorligini oshirishni manbasi sifatida o'simlikchilikda hosildorlikni, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish orqaligina erishish mumkinligi isbot talab qilmaydigan haqiqat.

Shunday ekan, qishloq xo'jaligida innovatsion rivojlanishga o'tish va ushbu faoliyat ko'lamini kengaytish, sarflanayotgan mablag'larning hajmini ko'paytirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Buning uchun quyidagi innovatsion tadbirlarni yanada jadallashtirish talab etiladi:

- molekulyar genetika va an'anaviy seleksiyani qo'llash orqali kasalliklarga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi yuqori mahsuldor navlarini yaratish;

- xorijiy naslchilik qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori mahsuldor navlarini O'zbekistonning tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirish;

- yerdan foydalanishning yangi tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish va suvni tejash texnologiyalari;

- mashinalarning resurs tejoychi tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish qishloq xo'jaligida texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash;

- o'simliklar kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashda yuqori samarali biologik preparatlar yaratish va ulardan foydalanish;

- qishloq xo'jaligida chorva mollarining yuqori mahsuldor zotlarini yaratish;

- xorijiy seleksiyadagi chorva mollarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish;

- chiqindisiz qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy;

- chorvachilikda texnologik jarayonlarni kompleks mexanizatsiyalash uchun mashinalarning yangi resurs tejoychi tizimlarini yaratish;

- suv ta'minotining texnik vositalarini ishlab chiqish, qayta tiklanadigan tabiiy energiya manbalaridan foydalanish;

- chorva mollarni saqlash va oziqlantirish tizimini takomillashtirish;

- chorva mollarni tashxislash, oldini olish va davolashning yangi usullarini ishlab chiqish.

Xulosa o'rnida, qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirish tashkiliy masalarni rivojlangan davlatlar darajasida unga motivasiya, stimullar berish, davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, bu borada fermer va dehqon xo'jaliklarini rahbarlari va mutaxassislarini o'qitish, malakasini oshirish, subsidiya ko'rinishidagi imtiyozli kredit, soliq imtiyozlari kabi vositalardan foydalanib potensial imkoniyatlarni to'liq ishga solish zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

[1] World Bank report Washington, September 16, 2019, //www.worldbank.org/

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019-2021-yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasida to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz.

- [3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2022 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasida to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni. Lex.uz.
- [4] Гулямов С.С. Пандемия оқибатларини бартараф этишда инновацион иқтисодиётнинг аҳамияти. Молия ва Банк иши (электрон илмий журнал). Пандемия ва иқтисодиёт. (маҳсус сон) №2. 2020. www.jurnal.bfa.uz.
- [5] J.A. Schumpeter (1934) in “The Theory of Economic Development” <https://ia801402.us.archive.org/10/items/in.ernet.dli.2015.187354/2015.187354.The-Theory-Of-Economic-Development.pdf>.
- [6] Инновационная деятельность в аграрном секторе экономики России / Под ред. И.Г. Ушачева, И.Т. Трубилина, Е.С. Оглоблина, И.С. Санду. – М.: КолосС, 2007. - 636 с.
- [7] Новиков В.М. Организационно-экономический механизм инновационного развития сельского хозяйства // Автореф. дис. на соис. уч. степ. д.э.н. Воронеж, 2013.
- [8] Алтухов А.И., Нечаев В.И. Экономические проблемы инновационного развития зернопродуктового подкомплекса России. – М.: Издательство Насирддинова В.В., 2015. – 477 с.
- [9] Мустафакулов Ш. Анализ механизмов оценки социально-экономического и инновационного потенциала регионов // Электронный научный ж-л «Финансы и банковское дело», №3, апрель, 2016.
- [10] Мухитдинов Х.Т. Институциональный подход к анализу формирования и развития инновационного потенциала // Ж-л «Экономика и финансы», №2, 2012.
- [11] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. www.stat.uz.
- [12] Hadjimuradovich B. A., Nurilla o‘g‘li O. J., Farkhod o‘g‘li A. D. Methodology of regulating and developing production and economic relations in agriculture // World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – Т. 15. – С. 139-147.
- [13] Burkhanov A. N., Abduvakhidov A. A., Toshboev B. B. Directions of Organizing the Activities of Clusters in Uzbekistan. – 2019.
- [14] Burkhanov Alisher Hadjimurodovich, Innovative activity development tendencies in agriculture. Journal of Management Value & Ethics.
- [15] Бурханов, А. (2023). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini resurs tejovchi texnologiyalar asosida samaradorligini oshirish–yangi iqtisodiy munosabatlar mezonlari. Экономика и образование, 24(2), 284-289.
- [16] Бурханов, А. (2023). Сущность и особенности новых экономических отношений в сельском хозяйстве. International Journal of Economics and Innovative Technologies, 11(2), 166-179.